

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili fakulteti**

**O‘zbek tili kafedrası**

**MUTOLAA MADANIYATI VA IFODALI O‘QISH**

**O‘qituvchi sillabusi**

**Tuzuvchi: Namozov Musurmon**

<b>Fan/modul kodi</b> <i>100.4MMI8T</i>	<b>O‘quv yili</b> 2020/2021	<b>Semestr</b> 2 (bahorgi)	<b>ECTS – Kreditlar</b> 8	
<b>2- semestrda</b> <b>ECTS – Kreditlar soni</b> 8	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 8	
<b>Fanning darajasi</b> Maxsus darajadagi fan – 100	<b>Fan/modul turi</b> Tanlov		<b>Modul rahbari</b> Namozov Musurmon <a href="mailto:musulmonnamoz@navoiy-uni.uz">musulmonnamoz@navoiy-uni.uz</a>	
<b>Universitet binosi</b> 4-bino	<b>Hafta kunlari</b> Seshanba, payshanba		<b>Vaqt</b> Kunning birinchi yarmi	
	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<i>Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish</i>	<i>2 -semestr 120</i>	<i>2 -semestr 120</i>	<i>2-semestr 240</i>
<b>1</b>	1-modul	30	90	120
<b>2</b>	2-modul	90	30	120
	<b>JAMI</b>	120	120	240

**Fanning tavsifi**

“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fani mutolaa madaniyatining talablari, qonun-qoidalarini o‘zlashtirish, millat hayotida kechgan ijtimoiy-tarixiy, ruhiy-ma’naviy, adabiy-estetik jarayonlarni tushunish, mutolaa jarayonida ifodali o‘qish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, aruz va barmoq vazni xususiyatlarini farqlash, lirik, epik va dramatik turlarning o‘qilish yo‘llari hamda usullarini o‘rganish masalalarini qamrab oladi.

**Fanning mohiyati**

O‘zga tilli maktablarda o‘qitilayotgan o‘zbek adabiyoti namunalarining barchasini o‘qish, “Adabiy o‘qish” fanini o‘tish jarayonida bu bilimlardan foydalanishni to‘liq o‘zlashtirishdan iborat. Fanni o‘qitish orqali o‘zbek adabiyotini tarixiy va nazariy poetika, jahon adabiyoti, badiiy matn tahlili aspektida tushunadigan, og‘zaki va yozma nutqi ravon, aruz vaznidagi she‘rlarni, badiiy matnni ifodali o‘qiy oladigan, nutq madaniyati ko‘nikmalarini egallagan yuksak malakali pedagog kadrlar tayyorlash ko‘zda tutiladi.

**Fanning natijasi**

O‘zga tilli guruhlarda o‘qitiladigan o‘zbek adabiyoti namunalarini o‘rganish, to‘liq mutolaa qilish va ifodali o‘qishga qaratilgan.

**Baholash mezonlari**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi” nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YN dan iborat.

<b>Turi</b>	<b>Foizi</b>	<b>Saralash turi</b>	<b>Shakli</b>
Og‘zaki savol-javob, yozma ish	<b>60%</b>	ON, YN	Savol-javob, loyiha ishi
Mustaqil ta’lim	<b>40%</b>		Taqdimot

<b>Baholash usullari</b>	<b>Og‘zaki so‘rov, taqdimotlar, yozma to‘shiriqlar</b>
Fan bo‘yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	<p>Nazorat shakllari</p> <p>Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so‘rovlar, og‘zaki savol-javob, yozma ish, taqdimotlar ko‘rinishida o‘tkazilishi mumkin.</p> <p>Mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o‘zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi ko‘zda tutiladi. Qo‘yilgan masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma‘lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga qaratiladi. Mulohazalarni yetarli darajada rivojlantirish, analitik fikr yuritishga o‘rgatiladi.</p>
5 (A)  100-86	<p>Ish yetarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mushohada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo‘ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta‘lim standartlari asosida yozilgan bo‘lib, biroz tahrir qilish orqali mukammal darajaga yetkazilishi mumkin.</p>
4 (B)  85-71	<p>Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Tadqiqot masalalari aniq ko‘rsatib o‘tilgan va javob berilgan. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o‘rinli qo‘llanilgan. Ish “A” darajadagi ishlarga qaraganda ‘astroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan. Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo‘lsa-da, o‘rinli qo‘llanilgan. Ish “A” darajadagi ishlar kabi izchil bo‘lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta‘lim standartlarini o‘zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan.</p>

3 (C)          70-56	Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog‘lash yetarli darajada emas. Ba’zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo‘llash bo‘yicha ma‘lum ko‘nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko‘rsatilmagan yoki to‘g‘ri ko‘rsatilmagan yoxud yetarli darajada ko‘rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq biqancha grammatik va sintaktik xatolarga yo‘l qo‘yilgan holda yozilgan.
--	---

**Ta’lim berish va o‘qitish metodlari:** badiiy asar mutolaasi bilan muntazam shug‘ullanish, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ma‘lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlash, amaliy topshiriqdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash, ilmiy maqola, tezis va ma’ruzalar tayyorlash, amaliy mavzular bo‘yicha ijodiy ishlash, uy vazifalarini bajarish

**Kalit so‘zlar:** Mutolaa, ifodali o‘qish, nutq, kitobxonlik, notiqlik, o‘qish madaniyati, mutolaa madaniyati, og‘zaki nutq, yozma nutq, sharhlab o‘qish, matnni tushunish, ifodali o‘qish ko‘nikmalari.

## 1. “Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fani bo‘yicha ma’ruzalar taqsimoti:

### I modul

№	Mavzular	Soat
1	“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fan sifatida. Fanning ob’ekti va sub’ekti.	1
2	Ifodali o‘qishning matnni tushunish va tushuntirishdagi o‘rni. Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning yo‘li va usullari	1
3	Qadimgi Yunon mifologiyasi. Ularning ijtimoiy-badiiy tafakkur tarixida tutgan o‘rni. Adabiyotga va san’atga ta’siri	1
4	Platon, Suqrot asarlarida notiqlik masalasi talqini. Aristotelning “Poetika”. “Ritorika” asarlari	1

5	Sharq xalqlarining asotirlari. "Avesto" turkiy xalqlar yozma yodgorligi.	1
6	Mumtoz asarlarda voizlik san'atining ulug'lanishi."Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat ul- haqoyiq" asarlarida so'z ta'rifi. ilm- ma'rifat targ'ibi	1
7	Aruz vaznidagi lirik asarlarni ifodali o'qish. Alisher Navoiyning "Zihi husning zuhuridin...", "Shifoi vasl qadin" deb boshlanuvchi g'azallarini vaznga solib o'qish	1
8	O'rta asrlar Sharq dunyosida ilm- ma'rifatning ivojlanishi. Pahlavon Mahmud, Umar	1
9	Alisher Navoiy g'azallarini mutolaa qilish.	1
10	Alisher Navoiy dostonlari. "Hayrat ul-abror"dostoni mutolaasi.	1
11	Navoiydan keyingi davr o'zbek adabiyoti: Zahiriddin Muhammad Bobur, M.Ogahiy ijodini o'rganish	1
12	Kichik janrlar mutolaasida nomuvofiqlik masalasi.Ruboyi va tuyuq janri misolida	1
13	XIX asrning so'nggi choragi o'zbek adabiyoti: Z.Furqat, Z.Muqimiy asarlari mutolaasi.	1
14	Rus adabiyotining darg'alari: A.Pushkin va M.Lermontov, L.N.Tolstoy va F.Dostoevskiy asarlari mutolaasi.	1
15	XX asr boshlaridagi Yevropa adabiyoti.Modernizm	1
16	Turkistonda jadidchilik harakati: M.Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov.	1
17	Jadid adabiyotining yuruk vakillari. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir ijodi misolida.	1
18	Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Oybek ijodi.	1
19	O'tgan asrning 60-yillari o'zbek badiiy tafakkurida sodir bo'lgan o'zgarishlar: Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ijodi misolida	1
20	O'zbek prozasida yangi ovoz bo'lgan adiblarimiz: Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Asqad Muxtor ijodini o'rganish	1

21	Mutolaa va ifodali o‘qish san’atining teatr va kino san’ati bilan bog‘liqligi. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Sehri qalpoqcha” hamda	1
22	Urg‘u va pauzaning ifodali o‘qishdagi ahamiyati. Erkin Vohidovning “Inson”, “O‘zbekim” qasidasi misolida.	1
23	Epik asarlarda nutq va mutolaa masalasi. O‘tkir Hoshimov “Ikki Eshik orasi” asari qahramonlari nutqi ustida ishlash	1
24	Mutolaa jarayonida jumla, so‘z va nutqning vazifasi. Abdulla Qahhor hikoyalari misolida.	1
25	Ifodali o‘qishda ijroning ahamiyati. Muhammad Yusuf she’riyatida qo‘shiqchilik an’analari.	1
26	O‘zbek she’riyatida barmoq va aruz vazni imkoniyatlari. Xurshid Davron va Sirojiddin Sayyid ijodi misolida.	1
27	Sonet janri mutolaasida ifodali o‘qish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish. Rauf Parfining “U dunyoga, onamga maktub” turkumidagi sonetlari misolida.	1
28	Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida nutq shakllari.	
29	Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti: nasr.	1
30	Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti: nazm.	1
<b>JAMI:</b>		<b>30</b>

## 2.“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar taqsimoti:

### II modul

№	Mavzular	Soat
1	“Mutolaa madaniyati va ifodali o‘qish” fan sifatida. Fanning ob’ekti va sub’ekti.	2
2	Ifodali o‘qishning matni tushunish va tushuntirishdagi o‘rni. Ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning yo‘l va usullari	2

3	Qadimgi Yunon mifologiyasi. Ularning ijtimoiy-badiiy tafakkur tarixida tutgan oʻrni. Adabiyotga va sanʼatga taʼsiri	2	
4	Platon, Suqrot asarlarida notqlik masalasi talqini. Aristotelning “Poetika”, “Ritorika” asarlari	2	
5	Sharq xalqlarining asotirlari. ”Avesto” turkiy xalqlar yozma yodgorligi.	2	
6	Mumtoz asarlarda voizlik sanʼatining ulugʻlanishi.”Devoni lugʻotit turk”, “Qutadgʻu bilig” , “Hibat ul- haqoyiq” asarlarida soʻz taʼrifi ilm- maʼrifat tarqʻibi	2	
7	Aruz vaznidagi lirik asarlarni ifodali oʻqish. Alisher Navoiyning “Zihi husning zuhuridin...”, “Shifoi vasl qadin” deb boshlanuvchi gʻazallarini vaznga solib oʻqish	2	
8	Oʻrta asrlar Sharq dunyosida ilm- maʼrifat ning rivojlanishi. Pahlavon Mahmud, Umar	2	
9	Alisher Navoiy gʻazallarini mutolaa qilish.	2	
10	Alisher Navoiy dostonlari. “Hayrat ul-abror”dostoni mutolaasi.	2	
11	Navoiydan keyingi davr oʻzbek adabiyoti: Zahiriddin Muhammad Bobur, M.Ogahiy ijodini oʻrganish	2	
12	Kichik janrlar mutolaasida nomuvofiqlik masalasi.Ruboyi va tuyuq janri misolida	2	
13	XIX asrning soʻnggi choragi oʻzbek adabiyoti: Z.Furqat, Z.Muqimiy asarlari mutolaasi.	2	
14	Rus adabiyotining dargʻalari: A.Pushkin va M.Lermontov, L.N.Tolstoy va F.Dostoevskiy asarlari mutolaasi.	2	
15	XX asr boshlaridagi Yevropa adabiyoti.Modernizm	2	
16	Turkistonda jadidchilik harakati: M.Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidov.	2	
17	Jadid adabiyotining yuruk vakillari. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Choʻlpon, Usmon Nosir ijodi misolida.	2	
18	Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor, Gʻafur Gʻulom, Oybek ijodi.	2	
19	Oʻtgan asrning 60-yillari oʻzbek badiiy tafakkurida sodir boʻlgan oʻzgarishlar: Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlar ijodi misolida	2	

20	O'zbek prozasida yangi ovoz bo'lgan adiblarimiz: Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Asqad Muxtor ijodini o'rganish	2	
21	Mutolaa va ifodali o'qish san'atining teatr va kino san'ati bilan bog'liqligi. Xudoyberdi To'xtaboyev "Sehri qalpoqcha" hamda	2	
22	Urg'u va pauzaning ifodali o'qishdagi ahamiyati. Erkin Vohidovning "Inson", "O'zbekim" qasidasi misolida.	2	
23	Epik asarlarda nutq va mutolaa masalasi. O'tkir Hoshimov "Ikki Eshik orasi" asari qahramonlari nutqi	2	
24	Mutolaa jarayonida jumla, so'z va nutqning vazifasi. Abdulla Qahhor hikoyalari misolida.	2	
25	Ifodali o'qishda ijroning ahamiyati. Muhammad Yusuf she'riyatida qo'shiqchilik an'analari.	2	
26	O'zbek she'riyatida barmoq va aruz vazni imkoniyatlari. Xurshid Davron va Sirojiddin Sayyid ijodi misolida.	2	
27	Sonet janri mutolaasida ifodali o'qish vositalaridan to'g'ri foydalanish. Rauf Parfining "U dunyoga, onamga maktub" turkumidagi sonetlari misolida.	2	
28	Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida nutq shakllari.	2	
29	Istiqlol davri o'zbek adabiyoti: nasr.	2	
30	Istiqlol davri o'zbek adabiyoti: nazm.	2	
<b>JAMI:</b>		<b>60</b>	

### 3.Fan bo'yicha savollar to'plami:

- 1.Xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalari nima deb ataladi?
- 2.Ertaklarning qanday ichki turlari bor?
- 3.Afsona atamasi qaysi tildan olingan va nimani anglatadi?
- 4.Atamasi arabcha zakiy so'zidan olingan janr nomini toping?
- 5.Qo'shiq so'z ini surud, ayolg'u, lahn, turkitarona , ashula, o'lan, chipta atamalari bilan nomlangan asarning muallifi kim?
6. Doston, poema, ballada –bular qaysi janrga mansub

7. . Go'ro'g'li turkumining so'ngi dostonini qanday nomlanadi?
8. Alpomish dostoni qaysi dostonchilik maktabi vakili tomonidan yozma adabiyotga kiritilgan?
9. "Oysuluv" dostoni qaysi doztonlar turiga mansub?
10. "Devonu lug'atit turk" qaysi yozuvda yozilgan?
11. "Olam sevgi asosida vujudga keladi va shu qonuniyat bilan harakat qiladi" nazariyasi kimning qaysi asaridan olingan?
12. Qoraxonga madh, yetti kavokib va o'n ikki burj, tilning foydasi, kitob egasining uzri - bu ta'riflar kimning asari haqida?
13. Quyidagi ma'lumot "Xamca"ning qaysi dostoni haqida " Asar 1484-yilda yozilgan bo'lib, 59 bob, 5782 baytdan iborat"
14. Faylaqus (Filipp) onasi o'lgan go'dakni (...) topib olib, o'z tarbiyasiga olgan. Qavs ichidagi "Xamsa" qahramoni ismini toping.
15. Navoiyning qaysi asarida ulug' pirlari Bahovuddin Naqshband va Xoja Ahrorga bag'ishfovlar keladi?
16. Bu - Iskandar oynasi. Uni ... olim necha yil umrini sarflab, tilsim qilgan. Navoiy asaridan olingan parchadagi nuqtalar o'rnidagi sonni qo'ying?
17. Navoiyning Saddi Iskandariy asarida g'azablangan Doro Iskandarni kamsitish uchun unga nima jo'natadi?
18. " Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib nimalar manquldur". Bu ta'rif kimga tegishli va kim yozgan?
19. *Otadin xato kelsa, ko'rma xato,*  
*Savob bil xato qilsa dag'i ota.*  
Bu she'riy parcha kimning qalamiga mansub?
20. Odam nafs bilan emas, balki ruh tarbiyasi ibilan yuksalishi haqidaqa qaysi adib yozgan?
21. Gunohkor oddiy bir odamning aqli o'nsakkizming olamni yaratgan buyuk Allohni anglashi mumkin emasligi haqida kim, qaysi asarida yozgan?
22. Alisher Navoiyning "Devoni Foniy" asari necha misra forsiy she'rni o'z ichiga

olgan?

23. Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Harb ishi».Bu asarlar muallifi kim?

24. Bobur tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida qaysi kitobni ko‘chirgan?

25. .Nemis olimi Klaprot “Boburnoma”ning qaysi joy ta'rifiga oid qismini tarjima qilib shoirga shuhrat keltirgan?

26 .Boburning 1522 -yilda o‘g‘li Humoyunga atab yozgan asarini toping?

27. Ogahiyning 1852 -yildatuzilgan 18.000 misra she’ri jamlangan devonini nomini belgilang?

28. Ogahiy ijodiy faoliyati davomida nechta tarixiy asar yozgan?

29. “Riyozud-davla”, ”Gulshani davlat” ,”Shohidi Iqbol” bu asarlar kimning qalamiga mansub?

30. ”Navoiy g‘azallariga 30 dan ortiq muxammas bog‘lagan.Devonida 450 taga yaqin g‘azal bor”.Qaysi mumtoz adabiyot vakili haqida yozilgan?

31. *Ko`rki burundug kishining qo`lida,*

*Bu kishining ko`zlari o`z yo`lida.*

Ushbu parcha qaysi asardan?

32. Zarbulmasaldagi «Toshbaqa bilan Chayon» masala yana kimning, qaysi asarida uchraydi?

33. *Doda keldim, ey salatin sarvari, dodim eshit,*

*Sen shohu men benavo, lutf ayla faryodim eshit..* ushbu misralar kimning qalamiga mansub?

34. *Yordin ayiruv meni bedilni zor etti falak,*

*Yoshurun dardi dilimni oshkor etdi falak.*

Ushbu misralar kimning qalamiga mansub?

35. Nodirabegimning hayot yo‘li va adabiy merosi haqida ilmiy asarlar yozgan qaysi ijodkorlarni bilasiz?

36. ”... 1889 –yildaToshkentga keladi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi..”. Bu ma’lumot qaysi adib haqida?

37. O‘zbek matbuoti tarixida felyeton janrini boshlab bergan asar va unung

muallifini ko'rsating?

38. "Shoir Turkiya, Yunoniston, Bolgariya, Misr kabi davlatlarda bo'lib keladi. 1892 yilda Arab amirligiga boradi". Ma'lumot kim haqidaligini aniqlang?

39. *Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'men,*

*Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.*– Misralar muallifi kim?.

40. "Akt majlisi xususida", "Ilm xosiyati", "Hammomixayol"- bu asarlar muallifini toping?

41. Muhammad Rahim soniy-Feruz uni saroyga chaqirtirib, tabibiy ga shogird qilib topshiradi. Qaysi bo'lg'usi shoir haqidaligini toping?

42. *Yo 'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq,*

*Zulm tig'i birla bo'lg'an bag'ri yuz ming pora xalq...*

Misralar muallifini toping?

43. *Faryodki, hushim oldi bir moh tal'at ,*

*Qattol ko'zu g'amzalari jon ofat.*

*Avvalda eturdi vaslig'a jahd bila,*

*So'ngra mani qilgoli asiru Furqat.* Ruboiy muallifi kim?

44. «Millat», «Topar ekan qachon». Bu asarlar kimning qalamiga mansub?

45. «Maskovchi boy ta'rifida», «Voqeai Viktor» - bu asarlar muallifini toping?

46. U o'zbek adabiyotiga ishchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi. Bu ta'rif qaysi adib haqidaligini belgilang?

47. "MavlonoMuqimiy» romani va «Muqimiy» dramasini yaratgan yozuvchini belgilang?

48. Xushxat kotib bo'lib yetishgan Muqimiyga xattotlik asosiy kasb va tirikchilik manbai bo'lib xizmat qiladi. Muqimiy xattotlikni kimdan o'rgangan?

49. "Mineralogiya" va "Dorivor o'simliklar haqida kitob" risolalarining muallifi kim?

50. "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi", "Inson a'zolari haqida" uzhbu asarlar muallifi kim

51. A.Navoiyning “Vaqfiya” asari qachon yozilgan?
52. A.Navoiyning muammo janriga bag’ishlangan asarini nomini va yozilgan yilini aniqlang?
- 53.1492 yilda A.Navoiy adabiyot nazariyasiga bag’ishlangan qaysi asarini yozdi?
54. A.Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy “devoniga qaysi majmualari kiritilgan?
55. *Oshiq ani bilki, erur dardnok,*  
*Ham tili,ham ro’zi-yu ham ko’ngli pok.*
- Ushbu parcha “Xamsa”ning qaysi dostonidan olingan?
56. “Qutadg‘u bilig” ning Qohira nusxasi qaysi yozuvda ko‘chirilgan?
57. “Qutadg‘u bilig” asarini chinliklar va mochinliklar qanday nomlagan?
58. “Qutadg‘u bilig” asarini eronlik va turonliklar qanday ataganlar?
59. Savol Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida zulmni nimaga qiyoslaydi?
60. Mumtoz adabiyotda Jomu-may-oriflar nasibasi nima ma’noni anglatadi?
61. “A.Navoiy lirikasining ba’zi bir poetic usullari haqida” nomli asar muallifi kim?
62. Arabcha ‘parcha”, “bo’lak”, “pora” ma’nolarini anglatgan janr qaysi?
63. “Qutadg‘u bilig” asarining vazni qaysi?
64. A.Navoiyning fors-tojik tilida yozilgan qasidalar turkumi qanday nomlanadi?
- 65.A.Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida nechta maqolat bor?
66. “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, “Gulzor”, “Miftoh ul-adl” ,“Javohirlar sandig‘i”. Bu asarlar qanday asarlar hisoblanadi?
- 67.”Farhod va Shirin“ dostonida Farhod barpo etgan ariq va hovuzning nomi qanday nomlanadi,nima uchun?
68. *Manga ne yor-u ne oshiq havasdir,*  
*Agar men odam o’lsam,ushbu basdir!* Bu parcha olingan asar qaysi?
69. “Qobusnoma” nasriy didaktik asari qaysi tilda yozilgan?
70. Arabiy va forsiy adabiyotlarda uchramaydigan, faqat turkiy adabiyotga xos janr qaysi?

71. “Sab’ayi sayyor” dostoninig to’rtinchi hikoyati qaysi shaxs haqidaligini toping?
72. Nodira haqidagi dastlabki maqolani kim, qachon e’lon qilgan?
73. Mohlaroyim qanday taxalluslar bilan ijod etgan?
74. Nodiraning bizga qancha misra merosi etib kelgan?
75. Quyidagi bayt kimning qalamiga mansub:  
*Man’i muhabba t na qilursan menga,  
Ramzi haqiqat erur ishqij majoz.*
76. Quyidagi bayt kimning qalamiga mansub:  
*Yuz chok soching hasratidin shona yurogi,  
Mashshota erur turrai tarroringga mushtoq.*
77. Quyidagi bayt qaysi ijodkorga tegishli:  
*Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan muhabbat ixtiyor et.*
78. Gulxaniy haqida qaysi tazkiralarda ma’lumot uchraydi?
79. “Zarbulmasal” haqidagi dastlabki ilmiy maqola qachon, kim tomonidan e’lon etilgan?
80. Gulxaniy yana qanday taxallus qo‘llagan?
81. “Zarbulmasal” kimning taklifi va rahnamoligi bilan yaratilgan?
82. Gulxaniy “Zarbulmasal”ni yozganda qaysi asarlardan ta’sirlangan?
83. Gulxaniy “Zarbulmasal”da qancha xalq maqolini qo‘llagan?
84. Adib o‘z g‘oyalarini kishilar, qushlar, hayvonlar timsollari orqali ifodalagan asarni ko‘rsating.
85. “Zarbulmasal”da eng ko‘p qo‘llangan badiiy san’at turini ko‘rsating.
86. Ogahiyning devoni qanday nomlanadi va qachon tartib berilgan?
87. Ogahiy devonida jami qancha she’r jamlangan. Shundan qanchasi fors tilida?
88. Ogahiy qancha asarni tarjima qilgan?

89. Ogahiy nechta tarixiy asar yaratgan?
90. “Boburnoma” rus tiliga kim tomonidan tarjima qilingan?
91. “Majmuai shoiron” tazkirasining muallifi kim?
92. Qaysi asarda, qaysi shaharga quyidagicha ta’rif berilgan? “Shahr va bozorida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rostdur”.
93. “Boburnoma”da “Yunusxonning ikkinchi qizi edi”, deb kim nazarda tutilgan edi?
94. 1885 yilda kim tomonidan “Shayboniynoma”ning Vena kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi nemis tiliga tarjima qilindi?
95. Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devonining nomi qanday ma’noni anglatadi?
96. Sa’diyning “Guliston” asarini kim fors tilidan turkiy tilga tarjima qilgan va kimning taklifiga ko‘ra?
97. “Boburnoma”ni Bobur qanday atagan?
98. Boburning qaysi asarlari bizgacha etib kelmagan?
99. Bobur soliq ishlarini tartibga soluvchi qanday asar yozadi va qachon?
100. Turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda jahonda asos hisoblangan asar qaysi?

#### **4. Materiallar va adabiyotlar ro‘yxati**

##### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano – standart, 2018.
2. Masharipova Z. Ifodali o‘qish praktikumi.-Toshkent, 2011.
3. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - T.: Ma’naviyat, 2004.
4. R.Rasulov, N.Xusanov, Q.Mo‘ydinov. Nutq mahorati. O‘quv qo‘llanma. T.: 2006.
5. Sh. Normatova. Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Cho‘lpon, 2008.

##### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (“Xalq so‘zi”).

2017 yil, 8 feval).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari" to'g'risida"gi qarori ("Xalq so'zi", 2017 yil, 21 aprel)
5. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. - Toshkent: Fan, 2006.
6. Романичева Е.С., Пранцова Г.В. Современные стратегии чтения: теория и практика: Учебное пособие. - Москва: Форум, 2013. - 368 с. // <http://znanium.com/bookread.php?book=413610>
7. Vohidov E. She'r dunyosi. – Toshkent: Sharq, 2001.
8. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 tomlik. – Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 2001.
9. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet, 2006
10. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga materiallar. 1-son (hammuallif). Toshkent: Universitet
11. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). T., «O'qituvchi» 1987.
12. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T., 2005.
13. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi NDPI. Ifodali o'qish. O'quv qo'llanma. –Navoiy,2008
14. N. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: O'qituvchi. 1965.

#### **Internet saytlari**

<http://natlib.uz> –Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti

<http://ensiklopediya.uz> – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti

<http://library.ziyonet.uz/ru/book/49178>

<https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/jahon-adabiyoti-483-ta/attachment/kutubxona-jahon-adabiyoti/?lng=lat>

<http://ziyonet.uz> –O'zbekiston milliy ta'lim portali

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi

<http://referatlar.uz> –Referatlar, testlar, kitoblar va media ta'lim sayti

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi

<http://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9576-joshlar-va-kitobkhonlik-madaniyati>.

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi

<http://n.ziyouz.com/kutubxona/category/100-badiiy-kitoblar>

<http://kh-davron.uz/>

#### **O'qituvchining kontakt ma'lumotlari –**

**el.pochta-** musulmonnamoz@navoiy-uni.uz

(90) 178 32 90

**O‘qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti –**

Shanba kunlari

soat 14.00 dan 17.00 gacha